

CHANQAGAN RUHLARNING CHANQOG'INI QOLDIRADIGAN ADABIYOT

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

filologiya va tillarni o'qitish

(o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

SATTOROVA NOZIKOY

TEL: +998502079853

Annotatsiya. Ushbu maqolada chanqagan ruhlarning chanqog'ini qoldirgan adabiyot haqida, insonlarning adabiyotga bo'lgan e'tibori, hissiz insonlarni adabiyot va so'z orqali uyg'otish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Adabiyot, so'z, inson, kelajak.

Аннотация. В данной статье рассматривается литература, утоляющая жажду душ, внимание людей к литературе и пробуждение бесчувственных людей посредством литературы и слова.

Ключевые слова: Литература, слова, люди, будущее.

Abstract. This article examines literature as a source of spiritual satisfaction, people's attention to literature, and the awakening of the insensitive through literature and words.

Keywords: Literature, words, people, future.

Kirish. Adabiyot inson hayotida muhim o'rin tutadi, uning ma'anviy jihatdan yuksalishiga, boyishiga katta ta'sir qiladigan "toza ma'rifat suvi"dir. Avvalo, adabiyot so'zining lug'aviy ma'nosiga diqqat qarataylik. **Adabiyot**(arabcha — „adab“ so'zining ko'pligi) — Fan va amaliyotning biror sohasidagi yutuqlarini umumlashtiruvchi asarlar

majmui. San'atning bir turi („badiiy adabiyot“ deb ham ataladi); voqelikni soʻz yordamida obrazlar orqali aks ettiradi.

Asosiy qism. "Chanqagan ruhlarning chanqog'ini qoldiradigan adabiyot" bu — insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi, uning ichki kechinmalariga malham bo'luvchi va tafakkurini boyituvchi badiiy adabiyot san'atidir. U insonni ezgulikka chorlaydi va ma'naviy ozuqa beradi.

Adabiyotning qalbg va ruhga ta'siri quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo'ladi:

Tafakkurni o'stirish: hayotiy tajribalar, muammolar va ularga yechimlarni badiiy obrazlar orqali ko'rsatib, to'g'ri yo'l tanlashga o'rgatadi. Misol: „O'tkan kunlar“ asaridagi har bir qahramon shunchaki badiiy to'qima emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik qatlamlarga ega bo'lgan mukammal shaxsiyatdir. Otabek obrazida: U ilg'or fikrli, vatanparvar va ma'rifatparvar yoshlar timsoli bo'lsa-da, his-tuyg'ular va urf-odatlar girdobida xatolarga yo'l qo'yadi. Bunda mukammal inson bo'lmasligi, har qanday qaror ortida katta ma'suliyat yotishi haqida tahliliy fikrlashni shakllantiradi.

Ma'naviy ozuqa: Ruhni yuksaltirib, insonni tushkunlikdan xalos etadi va ijobiy his-tuyg'ularni (mehr-oqibat, sabr, shukronalik) uyg'otadi. Erkin Vohidov „Soʻz latofati“ she'rida adabiyot inson ruhiyati uchun qanday qilib eng oliy ma'naviy ozuqa bo'lishini tasvirlaydi.

Empatiya va his qilish: Boshqa insonlarning holatini tushunishga, dunyoqarashni kengaytirishga va qalbdagi bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi. Adabiyotimiz bor ekankiy millatimiz ,yurtimiz ,fikrlash doiramiz yaxshi .Misol:Zebining his-tuyg'ulari: Akbarali mingboshiga majburlab uzatilgan yosh va begunoh Zebi o'z taqdiridan qattiq dahshatga tushadi. Uning ichki qo'rquvi,yig'ilari, ota -onasidan judolikdagi g'am va chorasizligi uning shaxsiy his qilishidir.

Tasavvufiy adabiyoti (Ilohiy ishq va ma'rifat). Ruhning eng katta chanqog'i - Yaratganni anglash va unga intilishdir. Tasavvuf adabiyoti ushbu ma'naviy chanqoqni qondirishga xizmat qiladi.

Jaloliddin Rumi: Uning "Masnaviy" asari qalb ko'zini ochadi. Ruhning asliga (Allohga) bo'lgan intilishini kuylaydi.

Alisher Navoiy: "Lison ut-tayr" (Qush tili) dostoni ruhning komillik sari bosib o'tadigan mashaqqatli va go'zal yo'lini tasvirlaydi.

Xoja Ahmad Yassaviy: Uning hikmatlari oddiy xalq tilida qalbni poklash va oxiratni eslash orqali ruhga taskin beradi.

Klassik va falsafiy adabiyot (Hayot mazmunini izlash). Inson mavjudlik inqiroziga uchraganda, adabiyot unga dunyo va o'zligini anglashda yo'l ko'rsatadi.

G'arb falsafiy adabiyoti: Fyodor Dostoyevskiy ("Jinoyat va jazo") inson ruhiyatining eng qorong'u va yorug' tomonlarini ochib beradi. Albert Kamyu va Frans Kafka esa hayotning mazmuni haqida bosh qotirgan ruhlar uchun yo'ldosh bo'ladi.

Sharq falsafasi: Umar Xayyom ruboiylari hayotning o'tkinchiligi va har bir lahzadan ma'naviy zavq olish haqida saboq beradi. Shularga tayangan holda adabiyotimizni yuksaltirishimiz kerak.

Bazi insonlar borki hayotda adabiyot nimaligini bilishmaydi, uni go'zaliklaridan bahramand olishni bilishmaydi chunki ularni ruhlari o'lib bo'lgan. Inson bu dunyoga kelibdiki, nimanidir o'rganish orqali kimgadir nimadir o'rgatib savob oladi. Hattoki ilm o'rganish ham savob. O'zbekning o'zligini saqlab qolishi uchun ham bir qancha jadidlarimiz o'z jonlarini fido qilishgan. Qilayotgan barcha ishimizda, ilm olishimizda ko'proq e'tiborli bo'lishimiz kerak.

Xulosa.

Muhtaram Prezidentimiz biz yoshlar uchun ko'plab shart- sharoitlar yaratib, „Yosh kitobxon“ tanlovi uchun 40 millongacha pul mukofoti qo'yildi. Bu aynan pul uchun o'qi degani emas aksincha o'z ustida ishlab atrofda qilarni ham so'z bilan, kitob bilan o'lgan hislarni hayotning nematlaridan totib ko'rishga da'vat etish demakdir. Yana shuni ta'kidlab o'tamanki, „O'tkan kunlar“, „Kecha va kunduz“ kabi asarlarni o'qir ekanmiz, o'ta ta'sirli ekanini ko'ramiz. Chunki bir og'iz so'z insonni hayratga solib, ruhini

jonlantiradi. Shuning uchun ham siz ,men jamiyat bilan birga harakat qilsak, o'sha chanqab turgan insonlarni adabiyotimiz bilan chanqog'ini qoldiramiz .

Adabiyotimiz tirik ekan, biz hech qachon o'lmaymiz .

Foydalangan adabiyotlar :

1. www.google.com